

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

QOZAQOV FAYZIRAXMON AXMADJON O'G'LI

**TO'QIMALARNI TO'QISH JARAYONIDA HARAKATLANAYOTGAN
TANDA IPLARINI TARANGLIGI TURG'UNLIGINI TA'MINLASH
IMKONIYATLARINI TADQIQ ETISH**

**05.06.02–To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan-2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical science**

Qozaqov Fayziraxmon Axmadjon o‘g‘li

To‘qimalarni to‘qish jarayonida harakatlanayotgan tanda iplarini tarangligi
turg‘unligini ta‘minlash imkoniyatlarini tadqiq etish..... 3

Козаков Файзирахмон Ахмаджон угли

Исследование возможностей обеспечения стабильности натяжения вижущихся
основных нитей в процессе ткачества..... 23

Kozakov Fayzirakhmon

Investigation of the possibilities for ensuring the stability of warp yarn tension
during the weaving process..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 48

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

QOZAQOV FAYZIRAXMON AXMADJON O'G'LI

**TO'QIMALARNI TO'QISH JARAYONIDA HAKAKATLANAYOTGAN
TANDA IPLARINI TARANGLIGI TURG'UNLIGINI TA'MINLASH
IMKONIYATLARINI TADQIQ ETISH**

**05.06.02–To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.DSc/T4481 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aliyeva Dilbar Ganiyevna
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Valiyev Gulam Nabijonovich
texnika fanlari doktori, professor

Abdullayev Ulug'bek To'lanbayevich,
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «25» «aprel» soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04, (998)55-255-43-04. e-mail: namdtu_info@edu.uz, davlat texnika universitetida 12-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan davlat texnika universitetida Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (158-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: namdtu_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «13» «aprel» kuni tarqatildi.
(2026 yil «13» yanvardagi № 85 raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xolliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, professor

J.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Jahondagi savdo qoidolari tez o'zgarib, logistika zanjirlaridagi uzilishlar barqaror to'xtamayotgan bir paytda, to'qimachilik tarmog'ini samarali rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatda faol investitsiya siyosati yuritilayotgani, tashqi savdo va valyuta operatsiyalari erkinlashtirilgani natijasida sog'lom raqobat muhiti, haqiqiy bozor iqtisodiyoti shakllanmoqda. Bu borada, jumladan to'qimachilik mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmining 3 foizini, sanoatning 14 foizini yaratayotgan yirik tarmoqdir. Bu yo'nalishda 500 mingdan ortiq odam ish bilan band. So'nggi besh yilda 3,5 milliard dollarlik 396 ta korxona ishga tushdi. Ishlab chiqarish hajmi 10 milliard dollarga yetdi. Shu bois tarmoqni yanada rivojlantirishga alohida etibor qaratilmoqda.

Jahonda sintetik tolalar ulushi ortib, umumiy tolalar iste'molining qariyb 69 foizini tashkil etmoqda, bu esa sanoatni arzon xomashyo bilan ta'minlashi bilan birga ekologik yuklama va issiqxona gazlari chiqindilarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu yo'nalishda sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, aqlli to'qimalar ishlab chiqish, o'zini tiklash xususiyatiga ega materiallar yaratish, avtomatlashtirilgan to'qish mashinalari va robototexnika asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, shuningdek raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik yuklamani kamaytirish va innovatsion yechimlarni kengaytirishga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, to'quv jarayonida iplarning tarangligini boshqarish modeli, mato zichligini hisoblash usuli hamda energiya sarfini kamaytirish va jarayon samaradorligini baholash usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.¹

Respublikamizda sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasida², jumladan "Sanoatning drayver sohasini rivojlantirish va hududlarning hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish" vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, xom paxtani to'liq qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, xalqaro bozorlar uchun "Made in Uzbekistan" brendi ostida mahsulotlarni sertifikatlash, imtiyozli kreditlar ajratilishi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos mehnat sharoitlarini yaratish orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini kengaytirish,

¹ <https://www.startus-insights.com/innovators-guide/textile-industry-trends>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrda PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni

mahalliy to'qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida" PF-6-son Farmoni, shuningdek, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda 2024-yil 1-maydagi "Yengil sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son Qarorlari³, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganganlik darajasi. To'qimachilik sanoatida to'qimani texnologik jarayonlarning turli bosqichlarida iplarning uzish kuchi, uzilishdagi cho'zilishi, elastiklik va cho'zilish xususiyatlari qanday dinamik o'zgarishlarga uchrashi hamda bu o'zgarishlar mahsulot sifatiga qanday ta'sir qilishini o'rganish bo'yicha bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan: S.D.Nikolayev, N.A.Avilochkina, V.P.Tarascenko., S.K.Neogining, T.N.Denisenko, T.Ahmeda, S.S.Badawi va boshqalar.

To'qimalarni to'qish jarayonlarida iplarning mustahkamlik va deformatsion xossalari hamda ularning o'zgarish dinamikasini o'rganish borasida O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan:— A.D.Daminov, O.A.Axunboboyev, S.S.Raximxodjayev, B.X.Boymuratov, M.M.Abdujabborov, G. Sobirova, O.A. Ortiqov va A. Akramov. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyosh-havo isitgichlarning samaradorligini oshirish va kichik energetikaning amaliyotida qo'llash masalalarni yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, to'quv jarayonida foydalaniladigan iplarning fizik-mexanik xossalari, xususan ularning mustahkamligini sinov jarayonidagi ip uzunligiga bog'liqligiga oid masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlarining asosiy yo'nalishlari ro'yxatiga kiritilgan va Namangan Davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. To'qima to'qish texnologik jarayonida, to'quv dastgohidagi tanda iplarini tarangligini rostlash, to'qima sifatini yaxshilash hamda to'qima to'qish unumdorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to'quv jarayonida hosil bo'ladigan tanda va arqoq iplarining deformatsiyasi, mexanik xossalari o'ld bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari va adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;

³<https://www.worldbank.org/en/news/feature/2025/05/27/weaving-a-new-future-in-uzbekistan-s-cotton-sector>

homuza hosil qilish jarayonida tanda iplarining tarangligini nazariy va amaliy asoslash;

to'quv dastgohida tanda iplarining fizik-mexanik xossalarini aniqlash;

to'quv jarayonida tanda iplarining tarangliklarini rostlovchi moslama tayyorlash.

Tadqiqotning obykti sifatida to'qimalarni ishlab chiqarish jarayoni, to'quv dastgohi, to'quvchilik korxonasidagi yarim va tayyor mahsulotlar, to'quv jarayonida tanda iplari tarangligiga ta'sir etuvchi omillar olingan.

Tadqiqotning predmetini to'qima ishlab chiqarish texnologiyasi, tanda iplari, iplarni fizik-mexanik xossalari, iplarning yo'g'onligiga uzilish kuchini ta'siri, iplar tarangliklarini aniqlovchi usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida to'qimalarning statistik tahlil usullari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish, iplar mexanikasi, amaliy matematika hamda tajribalar tahlili va matematik statistika, baholash va maqsadli elektron dasturlar vositasida muqobillashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'quv dastgohining skalo moslamasiga qo'shimcha moslama sifatida hamda skalo moslamasidan farqli ravishda to'quv dastgohida tanda iplarini tarangligini dastgohning butun eni bo'yicha rostlovchi kompensator moslamasini konstruksiyasi yaratilgan;

to'quv dastgohidagi tarangliklarni bir me'yorga keltirish uchun takomillashtirilgan kompensator valini erkin qoplangan list parametrlarini (listning ko'ndalang kesim yuzasi, listning qalinligi, list qoplangan valni uzunligi) aniqlangan;

tanda iplarining val ustida joylashgan listga (kompensatorga) tegib turgan holatida hosil bo'ladigan yoyning geometrik parametrlari tahlil qilinib, ularning natijasida yuzaga keladigan yoy uzunligi aniqlangan;

to'quv dastgohida tanda iplarining tarangligiga ta'sir etuvchi asosiy texnologik va konstruktiv parametrlarga bog'liqlikni ifodalovchi adekvat regression tenglamasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

homuza hosil qilish jarayonida homuzadagi tanda iplarini deformatsiyasi va uni to'la nisbiy cho'zilish deformatsiyasi aniqlangan;

to'quv dastgohida tanda ipini tarangligini rostlovchi kompensator qurilma konstruksiyasi yaratilgan;

tanda ipi tarangligini o'zgarishiga mos ravishda kompensatordagi listni radiusi o'zgarishi natijasida, iplarning uzilishi (29%) kamaygan va tanda iplari tarangligi (45.3% ga kamayishi natijasida) rostlangan;

tanda iplarini (kompensator) val ustidagi listda egallab turgan yoy uzunligini aniqlash formulasi - $\Delta l = \frac{F_{SN} \times L}{E \times S}$ taklif etilgan;

chiziqli regression matematik model asosida to'quv dastgohida tanda iplarining tarangligiga, xomuzaning balandligi va ipning chiziqli zichligi bog'liqligini aniqlovchi adekvat regression tenglamasi olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umum nazariy xulosalar, to'qimalardagi tanda iplarni mustahkamligi va deformatsiya xossalari, ularni fizik-mexanik xossalariga o'zaro bog'lanishi va muvofiqligi, iplarning mustahkamligi ularning sinov jarayonidagi deformatsiyaga bog'liqligi hisobiy va tajribaviy natijalarning o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati iplarning mustahkamligi va deformatsiyasi ularning sinov jarayonidagi cho'zilishiga bog'liqligi bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iplarning cho'zilish jarayonidagi deformatsiyalarini o'rganilishi, cho'ziluvchanlik xossalarini to'quv jarayonidagi o'zgarishini aniqlash usullari orqali korxonadagi to'quv dastgohlarining ishlash samaradorligi oshirilganligi, to'qimaning sifat ko'rsatkichlari yaxshilanganligi, optimal parametrlarni tanlash orqali mahsulot sifatini yaxshilash hamda dastgoh ishlash ishonchliligini oshirilganligini tajribalar natijasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'qimalarni to'qishda tanda iplarining tarangligini me'yorlashtirish va ularni sinov jarayonidagi uzunliklariga bog'liqligini aniqlash usuli bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

STB – 220 to'quv dastgohlarida ishlatiladigan ohorlangan tanda iplarining tarangliklarini rostlash maqsadida yaratilgan "taranglikni rostlovchi kompensator" moslamasi "Home textile NT" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy etildi ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025-yil 22-dekabrda №02/06-2937-sonli ma'lumotnomasi). Natijada to'qimalarda tanda iplarining mustahkamlik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, tanda iplarining tarangligi 45.3% ga kamayganligi, olingan to'qima mustahkamligi: tanda ipi yo'nalishi bo'yicha 13.71 % ga oshgani, arcoq ipini yo'nalishi bo'yicha, 4.36 % ga oshgani, to'quv jarayonida tanda va arcoq iplarining uzulishlari soni 28.5 % kamaygani, dastgohning ishlab chiqarish samaradorligi 19 % ga oshishi natijasida, 70 % dan 89 % ga yetgan. Iqtisodiy samaradorlik 1 ta STB – 220 to'quv dastgohida, 1 yil uchun 15 552 146,99 (o'n besh million, besh yuz ellik ikki ming, bir yuz qirq olti) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqolalar, jumladan 4 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar sharhi hamda vazifalarning qo'yilishi”** deb nomlangan birinchi bobida to'quvchilikda tanda ipi tarangligini uning uzilishiga ta'siri, to'quv dastgohlarida iplarning tarangligi va uning musathkamligini o'rganishga bag'ishlangan ishlar tahlili, to'quv dastgohida taranglovchi mexanizmlarning turlari va ishlash jarayoniga oid bajarilgan ilmiy ishlar tahlili, to'quv dastgohida me'yoriy taxtlash parametrlari borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlili, hamda to'quv dastgohida tanda iplarini tarangligiga ta'sir etuvchi omillarga oid bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlar tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

To'qimachilik sanoatida mahsulot sifatini oshirish bugungi kunda texnologik jarayonlarni takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq. Xususan, to'qish jarayonida ip va matolarining deformatsion xossalari asosiy omillardan biri bo'lib, ular jarayon samaradorligini va tayyor mahsulot sifatini belgilaydi. Tanda iplarining mustahkamligi texnologik jarayonlarning turli bosqichlarida o'zgarib, ipning to'qilishdagi egiluvchanligi, cho'zilish darajasi va elastikligi kabi parametrlar orqali namoyon bo'ladi. Bu holat o'z navbatida, mahsulotning mustahkamligiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, to'quvchilik jarayonida tanda iplarini tarangligini me'yorlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida to'la o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning **“To'quv jarayonida tanda iplar mustahkamligini aniqlashning nazariy usuli.”** deb nomlangan ikkinchi bobida To'quv dastgohlarida homuza hosil qilish jarayonidagi tanda iplari deformatsiyasi tadqiqi, homuza hosil qilish jarayonida tanda iplarining dinamik va statik tarangliklarini aniqlash, oxorlangan va oxorlanmagan iplarning qayishqoqligini (qattiqligi) tadqiqi, to'quv jarayonida harakatlanaytogan tanda iplari tarangligini matematik modelini tahlili bo'yicha nazariy va amaliy tahlillar olib borilgan.

Deformatsiyaning elastik, lastik va plastik turlari bor bo'lib, chuqurroq o'rganilganda cho'zilish-siqilish, buralish, egilish va siljish kabi turlariga bo'linadi. Jismga tasir qiluvchi kuchlarning turiga qarab deformatsiya turlarini kuzatish mumkin.

Tanda iplari tarangligiga dinamik komponent ta'sir etadi. U dastlab homuza hosil bo'lish jarayonida yuzaga keladi, biroq homuza balandligi, batan mexanizmining harakati, lamellarning tebranishi kabi omillar ta'sirida o'zgaradi. Shuning uchun homuzaning o'lchamlari katta ahamiyatga ega.

Homuza hosil qilishdagi tanda ipining deformatsiyasi va to'la nisbiy chozilish deformatsiyasi: bu lameldan skalogacha, skalodan to'quv navoygacha va to'qima chetidan valyangacha bo'lgan masofa aniqlangan.

Agar lameldan skalogacha, skalodan to‘quv navoygacha va to‘qima chetidan valyangacha bo‘lgan masofani hisobga olinsa unda to‘la nisbiy cho‘zilish deformatsiyasi quydagi formula bilan aniqlanadi.

$$\lambda = \frac{h^2}{2} \left(\frac{1}{l_1} + \frac{1}{l_2} \right) mm; \quad (1)$$

Bunda:

h - homuza balandligi, mm; l_1 – old homuza uzunligi, mm; l_2 – orqa homuza uzunligi, mm

Agar, to‘quv g‘altigidan skalogacha, skalodan to‘quv lamelgacha va to‘qima chetidan valyangacha bo‘lgan masofani hisobga olinsa unda to‘la nisbiy cho‘zilish deformatsiyasini bilan aniqlash mumkin.

$$\varepsilon_{to'la} = \frac{h^2}{2l_1l_2} \times \frac{L}{L+(l_3+l_4+l_t)} \times 100\% \quad (2)$$

Bunda:

L – umumiy xomuza uzunligi ($l_1 + l_2$), mm;

l_t – To‘qima chetidan valyangacha bo‘lgan masofa, mm;

l_3 – lameldan skalogacha bo‘lgan masofa, mm;

l_4 – skalodan to‘quv g‘altigigacha bo‘lgan masofa, mm.

Bizni tajribamiz STB – 220 to‘quv dastgohida quydagi parametrlar asosida o‘tkazilgan, bunda:

homuza balandligi-120mm;

homuzani orqa qismi (l_1)-340 mm;

homuzani old qismi (l_2)-170mm;

batani mexanizmini arqoq ipini urish yo‘lagi-4-6mm;

homuzani umumiy uzunligi -510 mm;

tajribalar natijasida olingan homuza hosil qilishdagi tanda ipining deformatsiyasi-12.6 mm;

to‘la nisbiy cho‘zilish deformatsiyasi esa (lameldan –valyangacha) – 0.008 % ni tashkil etdi.

Tanda iplarining deformatsiyasi homuza o‘lchamlariga, to‘quv dastgohi turi va uning tezligi kabi omillarga bog‘liqdir.

To‘quv dastgohidagi tarangliklarni bir me‘yorga keltirish va sozlash uchun dastgohga qo‘yish uchun taklif etilgan kompensator valini qoplangan list parametrlari:

perimetri – 376.8 mm;

listning ko‘ndalang kesim yuzasi – 1540 mm²;

listning qalinligi - 0.7 mm;

list qoplangan valni uzunligi - 2200 mm dan iborat bo‘lgan.

R.Guk qonuni va Yung moduli formulalardan foydalanib, tanda iplarini val ustidagi listda (kompensator) egallab turgan yoy uzunligi quydagi formula orqali aniqladik.

$$\Delta l = \frac{F \times L}{E \times S} \text{ mm}; \quad (3)$$

Bu yerda:

Δl – listga tegib turgan ipni yoy uzunligi, mm;

F – jami taranglik miqdori, sN;

L – list qoplangan val perimetri, mm;

E – val ustiga qoplangan listning mustahkamlik qiymatini, Yung moduli, sN;

S – valning ko‘ndalang kesimi yuzasi, mm².

(3) formula asosida tanda iplarini val ustidagi listga (kompensatorga) tegib turgan xolatda hosil bo‘ladigan yoy uzunligi $\Delta l = 13.7$ mm. ni tashkil qilishi aniqlandi.

To‘qima tuzilishiga ta’sir etuvchi eng asosiy omillardan biri foydalaniladigan tanda va arqoq iplarining chiziqli zichligi hisoblanadi.

Tajribalar asosida oxorlangan ipning uzish kuchi - 401.6 sN, cho‘zilishi-17.98 mm (3.6 %), oxorlanmagan ipning uzish kuchi esa - 234.13 sN, cho‘zilishi-33.44 mm. (6.69 %) tengligi aniqlandi.

Shuningdek, oxorlangan ipning nisbiy mustahkamligi - 13.65 sN/teks (26.6 %), oxorlanmagan ipniki esa, -7.96 sN/teks (62.3 %) ega ekanligi aniqlandi.

Iplarning chiziqli zichligi orqali ularning diametrini aniqlanadi.

$$d_{ip} = \frac{1.25}{\sqrt{Nm}} = \frac{1.25}{\sqrt{34}} = \frac{1.25}{5.83} = 0.214 \text{ mm}; \quad (4)$$

“Home Textile NT Holding” MCHJning sinov laboratoriyasida o‘rnatilgan “Uster AG” (Shveytsariya) kompaniyasining “USTER TESTER-6” qurilmasida sinovdan o‘tkazilgan chiziqli zichligi $T=29.4$ teks bo‘lgan tajriba ipining sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish natijalari, ingichka “thin” va yog‘on “thick” joylar soni bo‘yicha ularning nominal qiymatiga nisbatan, foiz shaklidagi ma’lumotlar olingan va ular quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ipning ingichka va yo‘g‘on joylar soni bo‘yicha ularning nominal qiymatiga nisbati, foizdagi qiymatlari jadvali

№	Ko‘rsatkichlar	Ingichka joylar soni, dona/ km			Yog‘on joylar soni, dona/ km ipda	
		-30%	-40%	-50%	+35%	+50%
1	O‘rtacha qiymati 5 o‘lchov bo‘yicha	1811	123	3	551	63
2	Maksimal qiymat	2364	220	6	753	99
3	Minimal qiymat	1384	75	1	429	46

Oxorlangan va oxorlanmagan iplarning ingichka va yo‘g‘on joylariga tasir etuvchi kuch miqdorini quyidagi formula orqali aniqlangan

$$F = R_p \times (Z \%) \text{ sN}; \quad (5)$$

Bunda:

Rp - ipni uzish kuchi, sN;

Z - ipning ingichkava yog'on joylari, %

2-jadval

Ipning ingichka va yo'g'on joylariga ta'sir etuvchi kuch miqdorini qiymatlari

№	Oxorlangan ip uchun	Ta'sir etuvchi kuch miqdorini (sN)	Oxorlanmagan ip uchun	Ta'sir etuvchi kuch miqdorini (sN)
1.	401.6 (-30 %)	281.12	234.13 (-30 %)	163.9
2.	401.6 (-35 %)	261.04	234.13 (-35 %)	152.18
3.	401.6 (-40 %)	240.96	234.13 (-40 %)	140,478
4.	401.6 (-50 %)	200.08	234.13 (-50 %)	117.06
5.	401.6 (+35 %)	542,16	234.13 (+35 %)	316.075
6.	401.6 (+50 %)	602.4	234.13 (+50 %)	351.195

Oxorlangan va oxorlanmagan iplarning uzilish kuchlari (sN) ushbu iplarning ingichka hamda yo'g'on joylari ulushining foiz (%) qiymatlariga ko'paytirilishi orqali ipning strukturaviy notekis qismlariga ta'sir etuvchi kuch miqdorlari aniqlandi (2-jadvalga qarang).


3-jadval

Oxorlanmagan ipni uzilish kuchini uning diametriga bog'liqligini natijalari

№	Ko'rsatkichlar	Ip diametri "d",mm	Uzish kuchi F, sN
1	Hisobiy diametri 0,214 mm	0,214	234.13
2	Ingichka joylar -30%	0,149	163.9
3	Ingichka joylar og'ishi -40%	0,128	140.478
4	Ingichka joylar og'ishi -50%	0,107	117.06
5	Yog'on joylar og'ishi +35%	0,288	316.075
6	Yog'on joylar og'ishi +50%	0,321	351.195

Mazkur jadvalda oxorlanmagan ipning uzilish kuchi (F, sN) uning diametriga bog'liqligi bo'yicha olingan natijalar keltirilgan. Ip diametri hisobiy qiymatdan kelib chiqib, uning ingichka va yo'g'on joylaridagi foizli og'ishlar (–30 % ... –50 % va +35 % ... +50 %) asosida aniqlangan. Olingan natijalar ip diametrining o'zgarishi uzilish kuchiga bevosita ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi (3-jadvalga qarang).

Grafikda ip diametri ortishi bilan uzilish kuchi ham ortib borishini, ya'ni ip qanchalik yo'g'on bo'lsa, u shunchalik mustahkam bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Aksincha, ip diametri kamayganda uzilish kuchi keskin pasayadi, bu ipning uzilishga nisbatan zaiflashganini ko'rsatadi. Ip diametri bo'yicha notekislik ipning mexanik xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. To'quv jarayonida tanda ip diametrining o'zgaruvchanligi uning tarangligiga, uzilishlar soniga va mato sifatiga kata ta'sir ko'satadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Ohorlanmagan ipning uzilish kuchini uning diametriga bog‘liqligi diagarammasi


Dissertatsiyaning **“To‘quv jarayonida tanda iplar tarangligini o‘zgarish dinamikasini tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobida to‘quv jarayonida tanda iplar tarangligini o‘zgarish dinamikasini tadqiq qilingan bo‘lib, bunda to‘quv dastgohlaridagi tanda va arqoq iplarini uzilishlar soni tadqiqi, to‘quv jarayonida tanda iplari tarangligini rostlovchi qo‘shimcha kompensator qurilmasini tadqiqi, paxta tolasidan yigirilgan tanda iplarning fizik-mexanik xossa ko‘rsatkichlarini tadqiqi, to‘qimalarni to‘qish jarayonida harakatlanayotgan tanda iplarini tarangligi turg‘unligini ta‘minlash imkoniyatlarini tadqiq etish asosida olinadigan iqtisodiy samaradorlik hisobi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Namangan viloyati, Davlatobod tumanida joylashgan “Home Textile NT” MCHJ korxonasida o‘tkazilgan tadqiqot asosida STB to‘quv dastgohlarining foydali ish koeffitsientini tahlili o‘tkazildi. Bunda STB 190 to‘quv dastgohining FIK – 81.5, STB – 220 to‘quv dastgohiniki esa, FIK – 80.5 ni tashkil etdi. Bu korxona tomonidan belgilangan FIK ga nisbatan yuqori.

To‘quv jarayonida tanda iplarining tarangligini rostlovchi qo‘shimcha kompensator orqali, to‘qima hosil qilish jarayonida tanda iplarini tarangligini rostlanadi, tanda iplarini uzilishlar sonini kamayadi, to‘qima mustahkamligi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.


Taranglikni rostlovchi qo‘shimcha kompensator moslamasining vazifasi quyidagilardan iborat: egiluvchan tsilindrning perimetri yuzasi bo‘ylab o‘ralgan tanda ipning o‘rash yoyi uzunligini o‘zgartirish orqali homuza o‘lchami, o‘rilish turi va arqoq iplarini to‘qima chetiga urish jarayoniga qarab, homuza hosil qilish jarayonida tanda iplarnida bir xil tarangligini hosil qilishdir.

STB–200 to‘quv dastgohiga to‘quv jarayonida taranglikni rostlovchi kompensatorni o‘rnatilgan holatini texnologik sxemasi keltirilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. To'quv jarayonida taranglikni rostlovchi kompensatorni STB – 200 to'quv dastgohiga o'rnatilish xolatini texnologik sxemasi.

Bu yerda: 1-to'quv g'altagi, 2-skalo, 3-yo'naltiruvchi val, 3-lamel, 4-qo'zg'almas val, 5-taranglikni rostlovchi kompensator (val ustiga qoplangan list), 6-gula ko'zchalari, 7-old shoda ko'tarish ramkalari, 8-orqa shoda ko'tarish ramkalari, 9-batan mexanizmi, 10-mitti moki, 11-mitti moki yo'lakchasi vazifasini bajaruvchi tishlar, 12-to'qima qirg'og'i, 13-to'qima yo'naltiruvchi, 14-yo'naltiruvchi, 15-to'qimani tortuvchi val, 16-to'qimani o'rovchi val, 17-batan mexanizmi yelkasi.




3-rasm. Tanda ipini tarangligini rostlovchi kompensatorning texnologik chizmasi

Bunda: 1 va 4 yo'naltiruvchi vallar, 2 tanda ipi, 3 qo'zg'almas val, 5 qo'zg'almas val ustiga qoplangan list.

To'quv dastgohidagi tanda iplarini tarangligini rostlovchi mexanizm qo'zg'almas valning ustiga qoplangan list xomuzi ochilganda taranglik ortganligi

sababli pastga tushadi, homuza yopilganda esa, ya'na o'z holatiga qaytadi. Homuza ochilgan holatda qo'zg'almas val ustida tanda ipini list ustiga tegib turgan yoy uzunligi (Δl) – 13.7 mm tashkil etdi (3-rasmga qarang).

Tadqiqot ishida chiziqli zichligi 29.4 teks bo'lgan, 100 % paxta tolasidan yigirilgan tanda ipida tajribalar o'tkazilgan. Tajriba o'tkazish uslubi standartlar GOST 6611.2-73 (ISO 2062-72, ISO 6939-88) ga asosan olingan. Olingan natijalar tahlili diagramma shaklida keltirilgan.




4-rasm. 29.4 teksli paxta tolasidan yigirilgan tanda ipini uzish kuchining dastgoh tezligiga bog'liqligi

Mazkur grafikda ko'rishimiz mumkinki, 100 % paxta tolasidan yigirilgan tanda iplarning uzilish kuchi sinov tezligiga bog'liq holda sezilarli darajada farq qiladi. O'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, 10 mm/min tezlikda ipning eng kichik uzilish kuchi 279,9 sN ni tashkil etgan bo'lsa, 1200 mm/min tezlikda bu ko'rsatkich 355 sN ga ega. Demak, sinov tezligi oshishi bilan ipning uzilish kuchi 26.8 % ga ortgani kuzatildi (4-rasmga qarang).

Shuningdek tanda ipini uzilishdagi cho'zilishini ham tahlil qilindi. Keltirilgan grafikdagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ipning uzilishdagi cho'zilish ko'rsatkichi to'quv dastgohi tezligiga bog'liq ravishda sezilarli darajada o'zgaradi. Ya'ni, dastgohning past tezligida (10 mm/min) ipning uzilishdagi cho'zilishi eng kichik qiymat – 22,75 mm ni tashkil etgan bo'lsa, yuqori tezlikda (1100 mm/min) bu ko'rsatkich 29,49 mm gacha etgan. Demak, ipning cho'zilish qobiliyati tezlik ortishi bilan kuchayib, uzilish jarayonida ko'proq deformatsiyaga uchrashi mumkinligi bildiradi (5-rasmga qarang).

Tadqiqot ishida tanda iplarining tarangliklari xam aniqlandi, buning uchun taranglik o'lchaydigan qurilmadan foydalanildi, qurilma to'quv dastgohidagi bitta yoki bir nechta iplarni tarangliklarini o'lchashi mumkin.


Tanda iplari tarangligini o'chashda natijalarni aniqlilik darajasini oshirish maqsadida, to'quv dastgohdagi: to'quv g'altigidan skalogacha va skalodan lamelgacha bo'lgan masofada joylashgan tanda iplarini 6 qismga bo'lib o'lchanildi.



5-rasm. Iplarning uzilishdagi cho'zilish diagrammasi.

G'altakdan skalogacha bo'lgan oraliqda tanda iplarining tarangligi bo'yicha olingan eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, eski holatda iplar tarangligi yuqori va o'zaro katta farq bilan taqsimlangan. Eng yuqori taranglik 64,071 sN bo'sa, eng kichigi esa 44,421 sN ega, bu holatda iplarning uzilish ehtimolini yuqori bu esa to'qiladigan to'qimalarni sifatini pasayishiga olib keladi.


Taklif etilayotgan yangi moslama o'rnatilgandan so'ng iplarning tarangligi keskin pasaygan hamda o'zaro nisbatan yaqin qiymatlarga ega (20,411–34,504 sN oralig'ida). Bu natija moslamaning tanda iplarni ortiqcha taranglikdan himoya qilishi, ularning barqarorligini ta'minlashi va umumiy texnologik jarayonning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashini isbotlaydi (6-rasmga qarang).



6-rasm. To'quv g'altagidan skalogacha bo'lgan masofadagi tanda iplarini tarangligi.

Tanda ipini tarangligini moslovchi kompensator to'quv dastgohiga o'rnatilmasdan oldin va o'rnatilgandan so'ng to'qilgan mato namunasini arqoq va tanda yo'nalishi bo'yicha, YG026T rusumli qurilmada yarim davrli usulda uzish

yo'li bilan tadqiq etildi. Tajriba snovlari GOST 3813-72 (ISO 5081 -77, ISO 5082 - 82) standartlariga asosida o'tkazildi.



7-rasm to'qilgan to'qimaning tanda yo'nalishlari bo'yicha mustahkamlik gistogrammasi.

To'quv dastgohida tanda ipi tarangligini me'yorlashtiruvchi kompensator moslamasi to'quv dastgohiga o'rnatilmasdan oldin va o'rnatilgandan so'ng to'qilgan to'qimaning tanda yo'nalishlari bo'yicha mustahkamligi aniqlandi

To'quv dastgohiga tarangligini rostlovchi kompensator qo'llanilganda to'qimaning mustahkamligi oshgan. Bu oshish o'rtacha 30–90 N ni tashkil qiladi, bu matonining mustahkamligini 10–30% gacha oshganini bildiradi, demak to'qimada tanda iplarini to'qish jarayonida to'g'ri joylashishini va tanda iplaridagi tarangligi o'zaro teng taqsimlanishini bildiradi (7-rasmga qarang).

Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida mazkur tadqiqot ishi natijasida to'quv jarayonida harakatlanayotgan tanda iplarini tarangligini rostlovchi qo'shimcha kompensator yaratildi. Yaratilgan qo'shimcha mexanizmning tarangligini rostlovchi kompensatorni sinov ishlari "HOME TETILE NT" MCHJ korxonasida olib borilib va tahlil qilindi. Olingan sinov natijalari asosida korxonada mavjud STB – 220 to'quv dastgohiga taranglikni rostlovchi qo'chimcha kompensatorni o'rnatganda bitta to'quv dastgohida bir yil davomida 15 552 146,99 (o'n besh million besh yuz ellik ikki ming bir yuz qirq olti so'm qirq yeti tiyin) so'm sof foyda olinishi aniqlandi.


To'quv jarayonida harakatlanayotgan tanda iplari tarangligini matematik modellashda ta'sir etuvchi omillar sifatida kiruvchi omillar x_1 - xomuzaning balandligi (mm), x_2 – to'quv dastgohining tezligi (ayl/min), x_3 – tanda ipining chiziqli zichligi (teks), chiquvchi omil sifatida Y_1 (sN) - to'quv jarayonida tanda ipi tarangligi ko'rsatkichlari olingan (4-jadvalga qarang).

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash

Omillar nomi va belgilanishi		O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oralig'i
		-1	0	+1	
Homuzaning balandligi (mm)	X_1	100	120	140	20
To'quv dastgohining tezligi (ayl/min)	X_2	170	200	230	30
Tanda ipining chiziqli zichligi (teks)	X_3	21	29	37	8

Y_1 - To'quv jarayonida tanda ipi tarangligi (sN) va tanda ipining chiziqli zichligi (teks) ($x_3=0$) bo'lgandagi tenglama qayta yozib olamiz.

$$Y_1 = 22.67 + 2.35x_1 + 1.79x_2 + 1.04x_1^2 + 1.98x_2^2 \quad (6)$$




8-rasm. Tanda ipining chiziqli zichligi (teks) ($x_3=0$) bo'lgandagi kvadratik tenglama grafigi

($x_3=0$) bo'lganda homuzaning balandligi (mm), (x_1) oshib borgani sari va $x_2=170-185$ oralig'ida bo'lganida to'quv jarayonida tanda ipi tarangligi (sN) (Y_1) ko'rsatkichi pasaymoqda. to'quv dastgohining tezligi (ayl/min), x_2 oshib borgani sari va $x_2=180$ bo'lganida to'quv jarayonida tanda ipi tarangligi (sN) eng yaxshi natijaga erishmoqda (8-rasmga qarang).

Y_1 - bo'yicha regression modellarni To'quv dastgohining tezligi (ayl/min) va homuzaning balandligi (mm) ($x_1=0$) bo'lgandagi tenglama qayta yozib olamiz.

$$Y_1 = 22.67 + 1.79x_2 + 1.56x_3 + (-0.43)x_2x_3 + 1.98x_2^2 + 1.13x_3^2 \quad (7)$$




9-rasm. Homuzaning balandligi (mm) ($x_1=0$) bo'lgandagi kvadratik tenglama grafigi

($x_1=0$) bo'lganda to'quv dastgohining tezligi (ayl/min), (x_2) oshib borgani sari va $x_2=215-230$ oralig'ida bo'lganida to'quv jarayonida tanda ipi tarangligi (sN) (Y_1) ko'rsatkichi ko'tarilmoqda. tanda ipining chiziqli zichligi (teks), x_3 oshib borgani sari va $x_2=170 - 185$ oralig'ida bo'lganida to'quv jarayonida tanda ipi tarangligi (sN) eng yaxshi natijaga erishmoqda (9-rasmga qarang).

Y_1 - bo'yicha regression modellarni homuzaning balandligi va tanda ipining chiziqli zichligi ($x_2=0$) bo'lgandagi tenglama qayta yozib olamiz.

$$Y_1 = 22.67 + 2.35x_1 + 1.56x_3 + 0.25x_1x_3 + 1.04x_1^2 + 1.13x_3^2 \quad (8)$$



10-rasm. To'quv dastgohining tezligi (ayl/min) ($x_2=0$) bo'lgandagi kvadratik tenglama grafigi

($x_2=0$) bo'lganda homuzaning balandligi (mm), (x_1) oshib borgani sari va $x_1=140$ ga teng bo'lganida to'quv jarayonida tanda iplari tarangligi (sN) (Y_1)

ko'rsatkichi ko'tarilmoqda, tanda ipining chiziqli zichligi (teks), x_3 oshib borgani sari va $x_3=34$, bo'lganida tanda iplari tarangligi ijobiy natijaga erishmoqda (10-rasmga qarang).

5-jadval

Bitta to'quv dastgohi uchun samaradorlik hisobi

№	Ko'rsatkichlarni nomlanishi	O'lchov	Amaldagi kompensatorsiz	Taklif etilayotgan kompensatorli	Izoh
	To'quv dastgohi rusumi	STB 220			
	Dastgoh bosh valining aylanishlar soni (ayl/min)	ayl/min	200		
	Tanda ipining tarangligi	sN	53.366	24.337	-29,029 (45.35 %) kamaygan
	Olingan mato mustahkamligi: tanda yo'nalishida arqoq yo'nalishida	N	283.6 229.3	321.8 239.3	+38.2 (13.71%) + 10 (4.36 %)
	Iplarni uzuqlari soni (200 minutda) tanda iplari arqoq iplari	uz/200 min	2 0	5 uz/200 min	- 1 (28.5 %) -
	Samaradorlik	%	70	89	+19 %
	Ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori	metr/soat	5.16	6.62	)
		1 yil metr/soat	35 418,24		
	1 metr matoni narxi	So'm/metr	9 300		
	olinadigan daromad (so'm)	'			
	Korxonani yillik xarajati	So'm			72 562 301.01
	Taranglikni me'yorlashtiruvchi kompensatori uchun sarflangan xarajat	So'm	-		7 000 000
	Taranglikni rostlovchi kompensator o'rnatgandan so'ng olingan sof foyda	So'm	-		15 552 146,99

Bir yilda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotishdan olinadigan daromad.

$$10227.36 \times 9300 = 95\,114\,448 \text{ so'm}$$

Taranglikni rostlovchi kompensator o'rnatgandan so'ng olingan sof foyda

$$95\,114\,448 - 79\,562\,301,01 = 15\,552\,146,99 \text{ so'm}$$

1 dona to‘quv dastgohiga taranglikni rostlovchi kompensator o‘rnatish orqali 1 yilda 15 552 146,99 so‘m qo‘shimcha sof foyda olishimiz mumkin (5-jadvalga qarang).

UMUMIY XULOSALAR

“To‘qimalarni to‘qish jarayonida harakatlanayotgan tanda iplarini tarangligi turg‘unligini ta‘minlash imkoniyatlarini tadqiq etish” nomli (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olindi xulosalar qilindi:

1. To‘quv jarayonida tanda iplarining tarangligi va unga ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, ip deformatsiyalari hamda fizik-mexanik xossalarning to‘qima sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta‘siri aniqlandi. Tanda ipi tarangligini kompleks nazorat qilish va optimallashtirish to‘qima sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

2. To‘quv dastgohida tanda iplarining tarangligi hamda ushbu taranglik natijasida iplar tarkibida yuzaga keladigan deformatsiya jarayonlarining to‘qima hosil bo‘lish jarayoniga ta‘siri kompleks tarzda o‘rganildi. Jumladan, tanda iplarining taranglik darajasi to‘qish jarayonida iplarning uzilishlar soniga, texnologik jarayonning barqarorligiga hamda to‘qima hosil bo‘lishining asosiy parametrlariga ko‘rsatadigan ta‘siri tahlil qilindi. Tadqiqotlar davomida bir dona tanda ipining maksimal taranglik qiymati aniqlanib, to‘quv dastgohida ishlayotgan barcha tanda iplarining umumiy taranglik miqdori hisoblab chiqildi va baholandi.

3. Chiziqli zichligi $T = 29,4$ teks bo‘lgan ipda uchraydigan ingichka va yo‘g‘on joylar sonini aniqlash asosida ipga ta‘sir etuvchi kuch miqdori baholandi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida ipga ta‘sir etuvchi kuch taklif etilgan formula yordamida hisoblab chiqildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ip diametrining ortib borishi bilan uning uzilish kuchi mos ravishda oshib borishi kuzatildi. Aksincha, ip diametrining kamayishi ipning uzilishga bo‘lgan mustahkamligi pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Bu holat ipning geometrik o‘lchamlari bilan uning mexanik xossalari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

4. STB to‘quv dastgohida ip uzilishlarini kamaytirish va tanda ipi tarangligini optimal darajada saqlash uchun homuzaning balandligi 120–140 mm, to‘quv dastgohining tezligi 170–185 ayl/min va tanda ipining chiziqli zichligi 29–34 teks oralig‘ida tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu parametrlar kombinatsiyasi ipning ortiqcha deformatsiyasini kamaytirib, to‘quv jarayonining barqarorligi va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

5. Tajribalar asosida oxorlangan ipning uzilish kuchi - 401.6 sN (17.98 mm; 3.6 %), oxorlanmagan ipning uzilish kuchi esa - 234.13 sN (33.44 mm.;6.69 %) tengligi aniqlandi, shuningdek, oxorlangan ipning nisbiy mustahkamligi - 13.65 sN/teks (26.6 %), oxorlanmagan ipniki esa, -7.96 sN/teks (62.3 %) ligi aniqlandi.

6. R.Guk qonuni va Yung moduli formulalardan foydalanib, tanda iplarini val ustidagi listda (kompensator) egallab turgan yoy uzunligi aniqlandi. Taklif

etilayotgan formula asosida tanda iplarini val ustidagi listga (kompensatorga) tegib turgan holatda hosil bo'ladigan yoy uzunligi $\Delta l = 13.7$ mm ni tashkil qilishi aniqlandi.

7. Tajriba natijalariga ko'ra, chiziqli zichligi $T=29.4$ teks bo'lgan tanda iplarining 10 mm/min tezlikda minimal uzish kuchi 279.9 sN ni tashkil etgan bo'lsa, 1200 mm/min tezlikda bu ko'rsatkich 355 sN ni tashkil etdi. Shunday qilib, sinov tezligi oshgani sayin ipning uzish kuchi 26,8% ga oshdi.

8. To'quv dastgohida o'tkazilgan tajribada 29.4 teks tanda iplarini tarangligi 44–64 sN oralig'ida bo'lishi kuzatildi. Taklif etilgan kompensator o'rnatilgandan so'ng, iplarning tarangligi 20–34 sN oralig'ida bo'lib, bu qiymatlar natijasida tanda iplarning deformatsiyasi 2–2,5 baravar kamayadi, bu esa to'quv jarayonida tanda iplarini tarangligini muvozanatlashtirdi va uzilishlar sonini kamaytirdi.

9. Tadqiqot davomida, kompensator moslamasini to'quv dastgohiga o'rnatilgan va o'rnatilmagan holatlardagi xom to'qimaning fizik-mexanik xossalari hamda tanda iplarining taranglik ko'rsatkichlari olindi. Natijalar taqqoslanganda, taranglikni rostlovchi moslama qo'llanganda xom to'qimaning mustahkamligi oshganligi va bu oshish, o'rtacha 30–90 N ni tashkil qilganligi kuzatildi.

10. Taklif etilgan tanda iplarini tarangligini rostlovchi taranglik kompenatorning STB–220 to'quv dastgohida qo'llanilishi korxonaga bitta to'quv dastgohida bir yilda 15 552 146,99 so'm sof foyda berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSC.03/2025.27.12.Т.15.03 ПРИ НАМАНГАНСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КОЗАКОВ ФАЙЗИРАХМОН АХМАДЖОН УГЛИ

**ИССЛЕДОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
СТАБИЛЬНОСТИ НАТЯЖЕНИЯ ДВИЖУЩИХСЯ ОСНОВНЫХ
НИТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ТКАЧЕСТВА**

**05.06.02-технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО-ТЕХНИЧЕСКИ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2024.1.DSc/T4481.

Диссертация выполнена в Наманганский государственный технический университет.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (namdtu_info@edu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Алиева Дилбар Ганиевна
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Валиев Гулам Набиджанович
доктор технических наук, профессор

Абдуллаев Улугбек Туланбаевич
доктор технических наук, профессор


Ведущая организация:

Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится “13” апрель 2026 года в 15:30 часов на заседании при научном совете DSc.03/2025.27.12.T.15.03 при Наманганском государственном техническом университете (Адрес: г. Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел, тел. (998) 69-234-14-85, (998)69-234-19-96. e-mail: namdtu_info@edu.uz, Наманганский государственный технический университет, здание 12, 1 этаж, зал совещаний)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрирован под номером №158). (Адрес: г. Наманган, ул. И.Каримова, дом 12, тел. (998) 69-234-14-85, e-mail: namdtu_info@edu.uz

Автореферат диссертации разослан “13” апрель 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 85 от “13”января 2026 года).



К.М.Холиков

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Х.Т.Бобожанов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Ж.К.Юлдашев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях стремительного изменения мировой торговли и непрекращающихся сбоев в логистических цепочках особое значение придается эффективному развитию текстильной промышленности. В настоящее время, благодаря активной инвестиционной политике, проводимой в стране, и либерализации внешней торговли и валютных операций, формируется здоровая конкурентная среда и подлинная рыночная экономика. В этом отношении текстильная промышленность в нашей республике является важнейшей отраслью, обеспечивая 3% экономики страны и 14% промышленности. В этой отрасли занято более 500 тысяч людей. За последние годы введено в эксплуатацию 396 предприятий общей стоимостью 3,5 млрд долларов США. Объем производства достиг 10 млрд долларов США. Поэтому особое внимание уделяется в нашей республике дальнейшему развитию этой отрасли.

Доля синтетических волокон в мировом потреблении растет и составляет около 69% от общего объема потребления волокон. Это, обеспечивая промышленность дешевым сырьем, приводит к изменению экологии на окружающую среду и приводит к увеличению выбросов парниковых газов. В этом направлении проводятся научные исследования для развития отрасли. В этой области приоритетными исследованиями, включая разработку интеллектуальных тканей, создание самовосстанавливающихся материалов, повышение эффективности производства на основе автоматизированных ткацких станков и робототехники, а также снижение нагрузки на окружающую среду и расширение инновационных решений за счет внедрения цифровых технологий. Одновременно с этим основными задачами считаются разработка модели контроля натяжения нитей в процессе ткачества, метода расчета плотности ткани, а также метода снижения энергопотребления и оценки эффективности процесса.¹

В нашей республике реализуются масштабные меры, направленные на укрепление экономической стабильности и создание новых рабочих мест путем модернизации промышленности, внедрения инновационных технологий, увеличения экспортного потенциала и налаживания производства продукции, соответствующей международным стандартам. В Стратегии Президента Республики Узбекистан «Узбекистан-2030», в частности, определены задачи по развитию драйверных отраслей промышленности и полному использованию промышленного потенциала регионов.² При выполнении этих задач важно повысить конкурентоспособность отрасли, в частности, за счет полной переработки хлопка-сырца, расширения производства готовой продукции и сертификации продукции под брендом «Made in Uzbekistan» для международных рынков,

¹<https://www.startus-insights.com/innovators-guide/textile-industry-trends>

² Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии “Узбекистан-2030”»

предоставления льготных кредитов, внедрения современных технологий и создания условий труда, соответствующих международным стандартам.

Данное диссертационное исследование в определенной степени будет способствовать выполнению задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-6 от 16 января 2025 г. «В целях дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности и конкурентоспособности текстильной, швейной и трикотажной промышленности, расширения экспортного потенциала сектора и создания условий для более широкого проникновения отечественной текстильной продукции на зарубежные рынки», а также в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы и Постановлении № ПК-289 от 1 мая 2024 года «О мерах по модернизации предприятий легкой промышленности и внедрению инновационных технологий» и других нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.³

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование для диссертации проводилось в рамках II приоритетного направления развития науки и техники республики: «Энергетика, энерго- и ресурсоэффективность».

Степень изученности проблемы. в литературном обзоре по изучению физико-механических и деформационных свойств тканей на качество продукции текстильной промышленности, а также динамические изменения на различных этапах технологических процессов ткачества и их влияние на качество готовой продукции, внесли значительный вклад ряд известных зарубежных ученых в том числе: Николаев С.Д., Авилочкина Н.А., Тарасенко В.П., Неоджининг Самир Кумар, Денисенко Т.Н., Туфик Ахмеда, Саид Собхей Бадави и другие.

А так же были изучены прочностные и деформационные свойства нитей и динамика их изменения в процессах ткачества, что послужило предметом научных трудов видных ученых Узбекистана. Среди них: А.Д. Даминов, О.А. Ахунбобоев, С.С. Рахимходжаев, Б.Х. Боймуратов, Назарова М.В., Собирова Г., Ортиков О.А., Сафанов, А. Акрамов в результате научных исследований проведены теоретические и практические исследования по получению высококачественных текстильных изделий из тканей.

